

ABDULLA AVLONIY ASARLARI ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH

Komilova Dilorom Narzullayevna
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida vatanparvarlik ruhini tarbiyalash hamda ushbu jarayonda Abdulla Avloniy asarlaridan foydalanishning o‘rni va ahamiyati haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Vatanparvarlik, tarbiya, Abdulla Avloniy, boshlang‘ich sinf, bolalar, bilim.*

Abstract: *This scientific article talks about the role and importance of using the works of Abdulla Avloni in the education of the spirit of patriotism in elementary school students.*

Key words: *Patriotism, education, Abdulla Avloni, elementary school, children, knowledge.*

Аннотация: *В данной научной статье говорится о роли и значении использования произведений Абдуллы Авлони в воспитании духа патриотизма у учащихся младших классов.*

Ключевые слова: *Патриотизм, образование, Абдулла Авлони, начальная школа, дети, знания.*

Vatan va vatanparvarlik tarbiyasi haqida tushuncha, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning milliy, tarixiy asoslari. Vatanparvarlik tuyg‘usi kishining o‘z Vatani va uning tabiatiga, xalqiga, xalqining o‘tmishdagi va hozirgi qahramonligiga, tili va san‘atiga bo‘lgan otashin muhabbatini ifodalaydi. Qadim zamonlardan buyon xalqning o‘z Vataniga muhabbati qo‘shiqlarda, ertaklarda va sharq mutafakkirlarimizning nodir asarlarida tarannum etib kelinadi. Vatanga muhabbat tuyg‘usi insonlarni har doim mehnat qahramonligiga, xalqning baxt- saodati uchun kurashga undaydi. Vatanparvarlik – tug‘ma tuyg‘u emas. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinflarda bu tuyg‘uni tarbiyalashga muhim o‘rin berilgan. Vatan haqidagi boshlang‘ich bilimlar bolalarda ularning hayotiy tajribalari zaminida, tevarak- atrofdagi hayot to‘g‘risidagi muayyan tasavvurlari asosida hosil bo‘ladi.

Vatan - har bir kishida o‘z uyiga, tug‘ilib o‘sgan yurtiga, eng yaqin kishilari ota-ona, aka-uka, opa-singillariga bo‘lgan munosabatida aks etadi. Bolani vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning individual shakllari asosan oilada amalga oshiriladi. U yoki bu masalada hal qiluvchi rolni oila o‘ynaydi. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarning oilalari bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi, otaonalarni bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayoniga jalb qilishi kerak. Shunday qilib, ta‘lim muassasasida vatanparvarlik ishining muvaffaqiyati o‘qituvchilarning axloqiypsixologik xarakteriga, ularning psixologik,

pedagogik va kasbiy tayyorgarligiga, o‘z vazifalariga munosabatiga, shuningdek, o‘quvchilarning ota-onalari bilan samarali hamkorlik qilish qobiliyatiga bog‘liq.

Ma’naviyatimizni yanada rivojlantirishda esa millatimiz tarixini, ma’naviy qiyofasini o‘zida badiiy aks ettirgan tarixiy badiiy hamda ilmiy asarlarning ahamiyati va o‘rni beqiyosdir. Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan to‘rt qismdan iborat „Adabiyot yoxud milliy she’rlar” hamda „Birinci muallim”, „Turkiy guliston yoxud axloq”, „Ikkinchi muallim”, „Maktab gulistoni” kabi darsliklari ham xarakterli bo‘lib hisoblanadi. Bu asarlardagi mukammal fikrlarning g‘oyaviy to‘liqligi, ta’lim-tarbiya tizimiga va tushunchalariga doir fikrlarning ilmiynazariy asoslanganligi yuqoridagi fikrlarimiz dalilidir. boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida kitobxonlik yoki she’riyat kechalarini targ‘ib etishda ham Avloniyning asarlari qo‘l keladi. Ma’lumki, o‘quvchilar nutqini rivojlantirish maqsadida o‘quvchilarni ifodali o‘qishga o‘rgatish ona tili o‘qish savodxonligi darslarining asosiy vazifasi, ta’limiy vosita vazifasini bajaruvchi ma’lum bir asar voqealari ifodali o‘qish orqali o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalantirilgan. Abdulla Avloniy o‘quvchining savodini chiqarishga qanchalik e’tibor qaratgan bo‘lsa, asarlarni tushunib, ifoda bilan o‘qishiga, badiiy asarni his qilishiga shunchalik ko‘p diqqatini qaratgan. Dars jarayonida o‘quvchilarning xor bo‘lib o‘qishlarini ta’minlagan, mashqlar o‘tkazgan.

Avloniyning o‘zi dars jarayonida dirijyor sifatida namoyon bo‘lgan. Chunki Avloniy dirijyorlik san’atidan ham xabardor edi. Ifodali o‘qishning turli shakllari mavjud bo‘lib, ulardan biri deklamatsiya qilib o‘qishdir. Abdulla Avloniy chin ma’noda muallim milliy maktab tizimini va yaratgan asarlarining millatimizga ravnaqi uchun o‘z hizmati ko‘rsatyapti. Abdulla Avloniyning asarlari, o‘quvchilarga milliy, vatandoshlik ruhinitarbiyalash uchun juda muhimdir. Bu asarlar orqali o‘quvchilar, o‘z mamlakatiga vamilliyatiga qaramay, uning tarixiy, madaniy, adabiy, san’atij boyliklarinitushunishlari mumkin bo‘ladi. Bu esa ularning vatandoshlik ruhini oshirish, o‘zmamlakatiga sevgi va hurmatni o‘rgatishga yordam beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga Abdulla Avloniyning asarlari orqalimamlakat sevgisini, millatga hurmatni, tarixiy boyliklarni o‘rganish imkoniyati berilishi kerak. Ular bu asarlar yordamida o‘z mamlakatining tarixi, madaniyati, san’ati va adabiyoti bilan tanishib, unga qadirlarini anglab, uning boyliklarinio‘rganishlari mumkin bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Abdulla Avloniyning “Vatan” hamda “Hijron so‘zi” she’rlari, ayniqsa, diqqatga sazovor. Bizningcha, bunga asosiy sabablar: – “Vatan” hamda “Hijron so‘zi” she’rlari bevosita ilm oluvchilarga atab yozilgan; – bu she’rlar ilm oluvchilarning bilimdarajasiga, dunyoqarashiga, yoshi, ruhiy holatlariga mos keladi; – she’rlardagima’no va mazmun sodda, ravon tilda bayon qilingan; – bu she’rlarning yozilganigayuz yilga yaqin vaqt bo‘lsa-da, ular hozirgi adabiy tilimizga mosligi bilan alohidaajralib turadi. Abdulla Avloniyning vatan, vatanparvarlik ruhida yozilgan hikoyava she’rlari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlarni o‘rganishda muhimahamiyatga ega bo‘lib, ulardan talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashimkoniyatlari beqiyosdir. Bundan tashqari, Avloniyning asarlari o‘quvchilarga o‘z

mamlakatigaqaramay, uning mustaqilligiga, o'zaro hurmat va muhabbatga e'tibor qaratishgayordam beradi. Bu esa ularning vatandoshlik ruhini rivojlantirish, o'z mamlakatigafoydali bo'lish va unga xizmat qilishga intilishlari uchun juda muhimdir. Shuningdek, Avloniyning asarlari orqali o'quvchilar milliy adabiyotimizning boyliklarini ham tushunishlari mumkin bo'ladi. Ular uning asarlari orqali milliyadabiyotimizning eng muhim namunalari bilan tanishib, uning boyliklarinio'rganishlari va unga e'tibor qaratishlari mumkin bo'ladi.Bular asosida boshlang'ich sinf o'quvchilariga Abdulla Avloniyning asarlariasosida milliy, vatandoshlik ruhini tarbiyalash juda muhimdir va ularning shunchamuhim asarlardan foydalanishlari kerak.

O'qituvchisi o'quvchilarga vatanparvarlik tuyg'ularini singdirar ekan, Vatanostonadan, oiladan, mahalladan boshlanishini, Vatan tushunchasi har birinsonning yuksak darajadagi histo'yg'ulari, sadoqatli, fidoiy mehnati, o'zaro izzat hurmat kabi insoniy fazilatlaridanamoyonbo'lishini anglatib bormog'i lozim. Bu o'rinda respublika sportchilarining Xalqaro sport maydonlaridagi, ayniqsa, Olimpiya o'yinlaridagi ishtiroki, g'alabasi ana shu hislatlar tufayliustuvor ekanligini anglatib borish joiz. Ayniqsa, yurtimiz bayrog'ini uzoq o'lkalarda viqor bilan ko'tarilishi, madhiyamizning baland yangrashi, sportchilarning ona -Vatan sharafi uchunkurashgan va hissa qo'shganligining timsoli ekanligini bolaga yoshligidanoq o'rgatib borish zarur.

Xulosa qilib aytish mumkinki boshlang'ich sin o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ajdodlarimizning hissaları juda kattadir. Sababi ular o'zasarlarida vatanparvarlik tushunchasini juda keng ma'nolarda qo'llab biz uchunqoldirib ketishgan. Bu asarlarda nafaqat vatanparvarlik tuyg'usi balki butuyg'uning jamiyatda qanday o'rin egallashiy- u, hayotda qanday targ'ibqilinganligini turli xil misollar bilan ifodalab berishgan. Ayniqsa hayotiy tajribalar orqali tushuntirilgan bu asarlar o'quvchilar ongida yanada mustahkam bo'libqolishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.Aminov, T.Rasulov o'zlarining "Vatan - yurakdagi javohir". –T.: Sharq nashriyot matbaa kontserni, 1999
2. Tursunova.O "Oilada bola tarbiyasi" Toshkent 1995-y
3. Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2 жилдлик. 2-жилд. Тошкент "Маънавият" 2006.
4. Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud Axloq” asari.
5. Rahima Mavlonova, Nargiz Rahmonqulova “Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya”. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2013